



OKS VA HIND PIKTOGRAFIK
YOZUVLARINING QIYOSIY
TAHLILIGA DOIR

DASTLABKI MULOHAZALAR

Normatova F.,
tayanch doktorant



“

Annotatsiya:

Nutqning ilohiy bog‘lovchi kuchi bu so‘zdir. Xuddi shu omil insoniyatni boshqa mavjudodlardan ajratib bera oldi. Insoniyat hayotidagi hech bir narsa bir marta aytilgan so‘zning ishonchini kafolatlay olmaydi, bunga esa bashariyat yozuvni ixtiro qilgandagina erishdi. Yozuvni qaysidir ma’noda sivilizatsiya deb atasak, qaysidir jarayonda madaniy inqilob deb atasak bo‘ladi. Yozuvning o‘rganilish tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, har bir davrning kashfiyotlari, ixtirolari yozuvni jamiyatdan siqib chiqara olmadi, aksincha o‘sha ixtirolar taraqqiyoti uchun qayta-qayta yozilgan manbalarga murojat qilishga undadi. Yozuv tufayli insoniyat o‘z ajdodini angladi, o‘rgandi va kelajak uchun kurash yo‘lini ko‘rsatib bera oldi. Yozuv insoniyatni jamoaviy birlashishiga imkon bera oldi. Ushbu maqolada yozuvning paydo bo‘lishi va ayrim hududlar bilan taqqoslash masalasiga yondashilgan.

Kalit so‘zlar:

Yozuv, rasmlar, ashyoviy manbalar, piktogrammalar, jetonlar, loyli mit-ti buyumlar, xatlar, logogrammalar, tasvirlar, “Jarmo haykalchalari”, Oks, Hindiston.

Kirish.

Qadimda juda ko'p xalqlar o'z tilini harf bilan emas, balki tasvirlar, belgilar, bo'g'in qoidalari, tovush belgilari bilan yozishganliklarini bilishmaydi. Hatto-ki hali ham tadqiqotchilar tomonidan bu belgilarning o'qish masalasi dolzarbligicha qolayotganligini aytish mumkindir. Ashyoviy, rasmi hamda predmetli yozuvlarning insoniyat jamiyati ibtidosida qo'llanilishi bu albatta qaysi hudud va qaysi xalqlar hayotida uchrasa, demak shu xalqlar o'z tarixida munosib sivilizatsiyani boshlab bergan degan fikrni aytisak xato bo'lmaydi. Insoniyat tarixi taraqqiyotining eng buyuk ixtirolaridan biri yozuv hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Уларни

1. Arxeologik manbalar

2. Ilmiy tadqiqotlarga bo'lish mumkin.

Arxeologik manbalar.

Mesopotamiya shaharlaridan topib o'rganilgan loydan ishlangan jetonlar. O'rta Osiyoda qayd etilgan loydan yasalgan mitti buyumlar 1969-1973-yillarda arxeolog A. Asqarov tomonidan Sopollitepa yodgorligidan topib o'rganilgan sopol buyumlar.⁴¹ Jarqo'ton manzilgo-hidan topilgan sopolardagi 46 xil belgi yozuvlar, tumor va muhrlardagi belgilar. Arxeolog olim Sh. Shaydulla-yevnining G'ozdan topilgan bitiklar majmuasi.

Ilmiy tadqiqotlar.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Iogan Fridrixning "Istoriya pisma" asarida, A. Asqarov, B. Abdullayevning "Jarqo'ton" manbasida, N. Avanesovanning Baqtriyaning qadimgi yozuv tarixi manbasida, Sh. Shaydullaevning Sopolli madaniyatining piktografik belgi-yozuvlari nomli manbasida, Sh. Shaydullaev, A. Shaydullaevning "Turonning eng qadimgi yozuv tizimi" manbalarida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Tadqiqot metodi: Ushbu maqolada asosan quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalanilgan:

Tarixiy taqqoslash metodi – maqolada yozuvning va rivojlanishi turli sivilizatsiyalar misolida solishtirilgan. Misol sifatida Shumer, Misr, Hind va O'rta Osiyo xalqlarining yozuv tizimlari taqqoslangan.

Arxeologik tahlil metodi – maqolada yozuvga oid ashyoviy dalillar (jetonlar, mitti loy buyumlar) arxeologik manbalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari O'zbekiston, Mesopotamiya va Hindiston hududlaridan topilgan yozuv namunalari bilan bog'liq.

Manbashunoslik metodi – maqolada turli tar-

ixiy manbalar va ilmiy maqolalar asosida yozuv tarixi haqida fikr yuritilgan. Tadqiqotchilar (Vivian Bromann, A.L. Oppenheim, P. Amye, D. Shmandt-Bessera, A.A. Asqarov, N. Avanesova, Sh.B. Shaydullaev va boshqalar) ilmiy ishlari keltirilgan va ularning xulosalari sharhlangan.

Yozuv bu muayyan bir tilda qabul qilingan va kishilar o'rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimidir⁴².

Jahon xalqlarini yozuvga ega bo'lgan va yozuvdan foydalanmagan xalqlarga ajratish mumkin⁴³. Rasm-tasvirlarni chizish va ulardan foydalanish ko'nikmasi keyinchalik odamlar jamoasi uchun zaruratga aylangan hisob-kitob va qaydlar uchun dastlab ishlatilgan piktografik belgilar insoniyat tarixidagi dastlabki yozuv usuli hisoblanadi.

Yozuvning kelib chiqish tarixi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar oldida turgan muhim masalalardan biri bu rasmning xarfga aylanish evolyutsiyasining qay tariga kechganligi hisoblanadi.

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida yozuv o'ziga xos evolyutsiyani bosib o'tgan. Ibtidoiy davrda odamlar o'zlarining o'y-fikrlarini ifodalashga harakat qilish vositasi sifatida dastlab rasmlardan foydalan-ganlar. Bunday tasvirlar orqali tosh davri odamlarining tasavvurlari haqida ma'lumot olish mumkin. Rasmlar o'z navbatida yozuv mavjud bo'lmagan uzoq tarixiy taraqqiyot davomida odamlar uchun o'z fikr-salohiyatini o'zgalarga yetkazishni yagona usuli bo'lib xizmat qilgan.

Yozuvning paydo bo'lishiga asos bo'lgan keyingi bosqich ashyoviy xatlardan foydalanish davri hisoblanadi. Ibtidoiy davrdan boshlab odamlar tomonidan bi-ror kishiga xabar etkazish vositasi sifatida ishlatilgan uslublardan biri bu ashyoviy xat sanalgan. Xabar etkazishning bunday ko'rinishi keyingi davrlarda ham saqlanib keldi⁴⁴. Ana shunday ashyoviy xatlar qatoriga qadimiy Mesopotamiya shaharlaridan topib o'rganilgan loydan ishlangan jetonlar⁴⁵, shuningdek, O'rta Osiyoda qayd etilgan loydan yasalgan mitti buyumlar⁴⁶ni kiritish mumkin.

Ashyoviy xatlar bilan bog'liq masalalar ustida tadqiqot ishlarini olib borgan dastlabki olim sifatida Vivian L. Bromanni aytib o'tish lozim. Uning 1958-yilda yozilgan "Jarmo haykalchalari" nomli tadqiqot ishida yuzdan ortiq ana shunday jetonlar tahlil qilinib, guruhlariga ajratilgan. Loydan ishlangan mitti buyumlar shakliga qarab ba'zilar palahmon toshlari sifatida e'tirof etilgan bo'lsa, boshqalari sanoq buyumlari sifatida keltirib o'tilgan. Sanoq buyumlari haqida ma'lumotlar bu olimaning 1983 yilda "Zagros yonbag'irlarini tarix oldi arxeologiyasi" jurnalida chop etilgan "Jarmo haykalchalari va

41 A. Asqarov Сапаллитепа. Ташкент, 1973. Табл. 31.

42 O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Yo xarfi. 10-b.

43 Фридрих И. История письма. Перевод с немецкого. Из-во "Наука". Москва. 1979. С. 30.

44 Фридрих И. История письма. Перевод с немецкого. Из-во "Наука". Москва. 1979. С. 32.

45 Broman Vivian L. "Jarmo Figurines and Other Clay Objects"//Prehistoric Archaeology along the Zagros Flanks. 105. 1983. Pp. 369-423.

46 Аскаров А. А., Абдуллаев Б. Н. Джаркутан (к проблеме протогородской цивилизации на юге Узбекистана). Т. 1983. С. 24.; Ионесов В. И. Становление и развитие раннеклассовых отношений в оседлоземледельческом обществе Северной Бактрии. Автореф. дисс. канд. ист. наук. Самарканд. 1990.

loydan ishlangan boshqa buyumlar” nomli maqolasida ancha kengaytirilgan.

Jetonlar (mitti loy buyumlar) ning vazifasi haqida dastlabki muhim xulosa 1959 yilda A. L. Oppenheim tomonidan “Yaqin Sharq tadqiqotlari jurnali” da nashr qilingan “Mesopotamiya byurokratiyasining mahsus qurilmasi” nomli maqolasida ochib berilgan⁴⁷. Ushbu tadqiqot sanoq buyumlarga bag’ishlangan bo’lib, uning asosiga Iroqning shimolidagi Nuzi manzilidan topilgan e. avv. II ming yillikka oid ichi bo’sh taxtachalar olingan edi. A. L. Oppenheimni ushbu maqolasi jetonlar tizimini anglashda o’ziga xos kalit vazifasini o’tagan edi deyishimiz mumkin.

Ashyoviy xatlarni o’rganishda alohida eslab o’tishimiz lozim bo’lgan tadqiqotchi bu fransiyalik Pyer Amye hisoblanadi. U qadimgi Old Osiyo madaniyatiga oid boshqarma hujjatlarini o’rganishda muhim bo’lgan muhrlar borasida tadqiqot olib borayotgan edi. P. Amye Suzada qayd etilgan loydan yasalgan va ustiga muhr urilgan mitti sharsimon ashyolarni o’rganar ekan, ularni tovar mahsulotlari sanog’ida ishlatilgan ashyolar sifatida e’tirof etadi⁴⁸. Taklif e’tilgan g’oya tokenlar (jeton) dan yozuv ixtirosiga qadar ham foydalanilganini ko’rsatar edi, sababi, Suzadan topilgan geometrik shakldagi bu mitti ashyolar Nuzi manzilidan qayd etilgan mitti loy ashyolaridan 20 asrga qadimiyroq edi. Bu esa P. Amyega bunday sanoq ashyolari yozuvning o’tmishdoshi bo’lgani haqidagi xulosaga kelish imkonini berdi⁴⁹.

Ashyoviy xatni o’rganishda asli fransiyalik bo’lgan Amerika olimasi Deniz Shmandt-Bessera muhim o’rin tutadi. U o’zining tadqiqotlari ilk yozuv va uning tomonidan yozuvning o’tmishdoshi sifatida e’tirof etilgan “jetonlar tizimi” ga bag’ishlangan bo’lib, 1992-yilda nashr etilgan ikki tomli “Before writing” nomli asari ayniqsa diqqatga sazovordir⁵⁰. Qadimgi Sharq xalqlarining yozuv tizimi topilgan arxeologik topilma obyektlarida Shumer, Misr, Elam, Hind sususan Oks hududlarida belgili piktogrammalar xuddi shu jarayonni bosib o’tganligiga yetarlicha manbalar mavjud. Aholining visual aloqa imo –ishoralarlari hamda yuz mimikalari orqali muloqotga kirishish bu mavjud tushuncha, ammo nutqning ijtimoiy tabaqa va etnik kelib chiqish jarayoniga shaxs nuqtayi nazari mavjud, jamiyat nuqtayi nazari-dan esa tezroq aniqlik talab etiladigan tushuncha xosilasidir. Bu xolatni barcha xalqlar birday qabul qila olmaydi sababi imo-ishoralar qaysidir xalqlar orasida oddiy holat ko’rinishida ifodalansa, ko’pgina xalqlar orasida ijtimoiy axloq munosabatlarida yomon xulq sifatida qoraladi. Ashyoviy yozuvlarning bugungi jamiyatda hali ham saqlanib kelayotganligi Meri X. Kingsli G’arbiy afrikadagi mahalliy xalqlarning birida qo’shiqchilar

o’zlari bilan quvurlar, patlar, terilar, qushlarning boshlari suyaklari va boshqa bir turdagi narsalarni o’zlari bilan bir to’rning ichiga olib yurishlari, ularning har biri ma’lum bir qo’shiqni eslatishi, ya’ni bu to’r qo’shiqlar repertuarini tashkil etishini tushunish mumkin.⁵¹

Qadimgi Turon xalqlarining eng qadimgi yozuv tizimini o’rganishda akademik A. A. Asqarov muhim o’rin tutadi.

O’rta Osiyo ashyoviy xatlarini o’rganishda N. Avanesovani tadqiqot ishlarini ham alohida e’tirof etish lozim. Ayniqsa, olimaning 2002-yilda chop etilgan maqolasida, Sopolli madaniyatining Bo’ston bosqichiga oid qabrlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida qayd etilgan loydan yasagan mitti ashyolarga alohida tahlili keltirilgan⁵². Uning fikriga ko’ra, Bo’ston davrida kelib ramziy qabrlarda mayyit bilan birga yoki mayyitsiz qo’yilgan mitti loy ashyolar o’ziga xos xat vazifasini o’tagan. Shuningdek, olima bunday ashyolar diniy marosim an’analari bilan bog’liq bo’lgan deya xulosa keltiradi.

Sh.B.Shaydullayev o’zining tadqiqot ishlarini bir jabhasi sifatida Sopolli madaniyatining piktografik belgili-yozuvini tadqiq etishga bag’ishlagan⁵³. Uning tomonidan Sopolli va Jarqo’ton sopollarida bitilgan belgili-yozuvlar va Jarqo’ton qabrlarida qayd etilgan mitti ashyoviy buyumlar Qadimgi Misr, Mesopotamiya va Hind sivilizatsiyalarida uchraydigan ashyoviy xatlar va piktografik belgili yozuvlar bilan har tomonlama solishtirib o’rganildi. O’zining olib borgan tadqiqotlari va kuzatuvlari natijasida olim Sopolli madaniyati jamoalarida ikki xil yozuv mavjud bo’lgan degan xulosaga keladi. Shulardan biri bu mitti ashyoviy buyumlardan iborat bo’lgan.

O’rta Osiyo xalqlarining qadimgi ashyoviy xatlari A. Boqiyev va A. Sh. Shaydullayevlar tomonidan ancha keng o’rganilgan. Sopolli madaniyatining Ko’zali bosqichidan boshlab qabrlarda uchraydigan mitti buyumlarni tadqiqotchilar asosli ravishda ashyoviy xatlar sirasiga kiritadilar⁵⁴. Tadqiqotchilar mitti buyumlarning Sopolli madaniyati jamoalari orasida tarqalishini N. A. Avanesova singari Andronovo madaniyatini aholisining kirib kelishi bilan bog’laydilar. Ular Sopolli madaniyati aholisi loydan ishlangan ashyoviy buyumlar qatori metaldan ishlangan mitti ashyoviy buyumlardan ham foydalanganligini keltirib o’tadilar va buni ashyoviy yozuv bo’lgani haqida ilmiy asoslar keltiradilar.

Yozuv taraqqiyoti davomidagi keyingi bosqich bu piktografik yozuvlarning paydo bo’lishi hisoblanadi. Eng qadimiy piktografik yozuvlardan foydalangan xalqlar qatoriga shumerliklar, misrlik, xitoyliklar, hindlar, eron va turon xalqlarini kiritishimiz mumkin.

47 Oppenheim A. L. “On an Operational Device in Mesopotamian Bureaucracy”// Journal of Near Eastern Studies. № 18. 1959. Pp. 121 - 128 .

48 Amiet P. “Il y a 5000 ans les Elamites inventaient l’écriture”// Archeologia. № 12. 1966. Pp. 20-22 .

49 Amiet P. L’Age des échanges inter-iraniens. Paris. 1986. P. 76.

50 Schmandt-Besserat D. 1992, Before writing, volume one: from counting to cuneiform. University of Texas Press, Austin. 1992.










51 И. Гелб. История письменности. От рисуночного письма к полноценному алфавиту. Москва. 2018. С.-9.

52 Аванесова Н. А. Предметное письмо доисторической Бактрии//Transoxiana. М. 2002. С. 16-23.

53 Shaydullayev Sh. B. Sopolli madaniyatining piktografik belgi-yozuvlari// O’zbekistonda ishtimoiy fikr. № 2. T. 2003. 35-38-bb.; Choriyev Z., Shaydullayev Sh., Annayev T. O’zbekiston hududida yozuvning paydo bo’lishi va taraqqiyoti. “Yangi asr avlodi”. T. 2007. 72 b.; Shaydullayev Sh. B. O’g’irdagi bitiklar: yohud yozuvning paydo bo’lishiga doir muhim yangilik// Tafakkur. № 4. T. 2004. 56-57 bb.

54 Boqiyev A., Shaydullayev A., Yo’ldosheva Z. Oks Sivilizatsiyasi. “Yangi nashr”. T. 2015. 109-b.

Oks va hind yozuvlari tahlili

№	Jarqo‘ton	Kattabuloq	Mohenjadaro	Harappa	Adabiyotlar
1					ЧориевЗ,Шайдуллаев Ш,АннаевТ.Возникновение и развитие письменности на территории Узбекистана. 2007. 10 рис. 12 символ, 127 стр. Corpus of Indus Seals and Inscriptions.Collections in India. Helsinki.1987.Mohenjadaro-615A.154 bet. Harappa L-255.P.293.
2					Sh . Shaydullayev, A. Shaydullayev. Turonning eng qadimgi yozuv tizimi.-Toshkent: Fan, 2024.-58-bet. Corpus of Indus Seals and Inscriptions.Collections in India. Helsinki.1987.M- 421A.103 bet.H. L-269A.270A.P.294.
3					ЧориевЗ,Шайдуллаев Ш,АннаевТ.Возникновение и развитие письменности на территории Узбекистана. 2007. 10 рис. 12 символ, 127 стр. Corpus of Indus Seals and Inscriptions.Collections in India. Helsinki.1987.Mohenjadaro M-419A.P.102. Harappa 105 A P.192.
4					Sh . Shaydullayev, A. Shaydullayev. Turonning eng qadimgi yozuv tizimi.-Toshkent: Fan, 2024.-58-bet. Corpus of Indus Seals and Inscriptions.Collections in India. Helsinki.1987.M-464A.P.112 .Harappa 121A.122 a.
5					Sh . Shaydullayev, A. Shaydullayev. Turonning eng qadimgi yozuv tizimi.-Toshkent: Fan, 2024.-57-bet. Corpus of Indus Seals and Inscriptions.Collections in India. Helsinki.1987. M-382A. P.95. H -125A.125a.126 A.P.195.
6					1-5-Аскарлов 1973: табл. 31, III (10-14); 1-Шайдуллаев 2009: расм 35(28). Sh . Shaydullayev, A. Shaydullayev. Turonning eng qadimgi yozuv tizimi.- Toshkent: Fan, 2024.-59-bet. Corpus of Indus Seals and Inscriptions.Collections in India. Helsinki.1987.M-619A.162-bet.
7					Sh . Shaydullayev, A. Shaydullayev. Turonning eng qadimgi yozuv tizimi.- Toshkent: Fan, 2024.-59-bet. Corpus of Indus Seals and Inscriptions.Collections in India. Helsinki.1987. M -618A 155 bet. H. L-230A.P.292.
8					Чориев З, Шайдуллаев Ш, Аннаев Т. Возникновение и развитие письменности на территории Узбекистана. 2007. 10 рисунок, 19 символ, 127 стр. Corpus of Indus Seals and Inscriptions.Collections in India. Helsinki.1987. Harappa L249A.P.293.
9					Sh . Shaydullayev, A. Shaydullayev. Turonning eng qadimgi yozuv tizimi.- Toshkent: Fan, 2024.-58-bet. Corpus of Indus Seals and Inscriptions.Collections in India. Helsinki.1987.Harappa L-265 A. P.294.

Insoniyat erishgan barcha buyuk yutuqlardan uning keyingi taraqqiyotini butunlay inqilob darajada burilish nuqtasini yaratib bergan kashfiyot sifatida yozuvni paydo bo'lishiga nisbatan aytsa bo'ladi. Yozuvning paydo bo'lishi tarixiga nazar tashlasak, yozuv faqat insonning til bilan bog'liq tushunchalarini yozma shaklda ifodalashni anglatishi bilan paydo bo'lgandesak mubolag'a bo'lmaydi. Yozuv inson nutqini yozib olish usulidir. Yozib olishga bo'lgan barcha urinishlar yozuvga o'tishdagi eng soda urinishlar bo'lgan, lekin biz uni haqiqiy yozuv deb ayta olmaymiz. Biz uchun odatiy ko'ringan belgilar yordamida shaxslararo munosabat shakllanadi. Qadimgi yozuvlarning barchasi nutqni ifodalashda unchalik samarali bo'lmagan.

Har bir xalqlar o'z yozuvlarining aniqlik darajasini yaratish va muloqotning o'z zamoni uchun qulay qilishga harakat qilishgan. Shuning uchun yozuvning paydo bo'lishi va evolutsiyasi daganda yer yuzidagi har bir xalqlar xususan o'z ijtimoiy hayot tarzi va taraqqiyotga erishgan xalqlar doimo yozuv tarixida o'z tizimini yaratishga harakat qilishgan. Chunki ularning muloqot vositasi qanday belgilar, simvollar, predmetlar ko'rinishida bo'lishiga qaramay rivojlanib boraverganligi ahamiyatlidir. Xususan shumer va misrliklar kabi xalqlar yozuvda ilg'or g'oyalarning tizimlilik darajasiga olib chiqib ananaviylik bosqichiga o'tkaza olgan. Bu borada Harappa yozuvlari ham tahsinga sazovordir. Negaki Oks sivilizatsiyasi yozuvlarining paydo bo'lishi va tarqalishida muhim ro'l o'ynagan. Qaysi ma'nodaki, madniy aloqalarning keng yo'lga qo'yilishi natijasida Oks va Harappa yozularining o'xshashlik jihatlari ko'pdir. Bu esa ilmiy tadqiqotlar va xulosalarga asoslanadi. Arxeolog olim Sh.Shaydullayevning ko'p yillik izlanishlari natijasida bu ilmiy yangilik katta qiziqishlarga sabab bo'lmoqda. Qadimgi Sharqda mixsimon yozuv tizimining shakllanishi bilan Baqtriyava va Marg'iyona piktografik yozuv tizimining taraqqiyoti kuzatilmaydi.⁵⁵ Quyidagi berilgan jadvalda siz Oks va Hind sivilizatsiyasining yozuv tizimidagi ayrim namunalar taqqoslash tahlili bilan tanishasiz. Bundan shuni anglash mumkinki, bu ikki hudud xalqlarining doimiy iqtisodiy- madaniy aloqalarning ta'siri juda yuqori bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida insoniyat qadimda ham bir-birlari bilan muloqotning negizini tashkil etuvchi omillarga asoslanib aloqaga kirishgan, bu esa ularda yetuk tafakkur mavjudligiga asosdir. Yozuvlar qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar ashyoviyimi, piktografikmi, logogammami asosan fikrlar va o'zlarining his tuyg'ularini yetkazish uchun umumiy qabul qilingan maxsus belgilar yoki belgilar tizimini asta sekin yaratishgan va uni ijtimoiy hayotga olib kirishgan sababi shundaki, maxsus belgilar odamlar tomonidan qo'llanilganda, boshqalar ularni qabul qilishganda tushunish kerakligiga nisbat berilgan. Kundalik muloqot muhitini shakllanishida xabarni uzatish va xabarni qabul qilishdan iborat jarayondir. Shunday ekan yozuvning ibtidoiy ko'rinishi ham qadimgi ajdodlarimiz tomonidan ijtimoiylashish jarayonini ya'ni belgilar yozuvlari jamiyat hayotiga kirib kelishi va uni o'zlashtirilishi bu juda qiziq va uzoq tarixiy jarayondir.

Adabiyotlar

1. А.Аскарлов Сапаллитепа. Ташкент, 1973. Табл. 31.
2. Аскарлов А. А, Абдуллаев Б. Н. Джаркутан (к проблеме протогородской цивилизации на юге Узбекистана). Т. 1983. С. 24;
3. Ионесов В. И. Становление и развитие раннеклассовых отношений в оседло-земледельческом обществе Северной Бактрии. Автореф. дисс. канд. ист. наук. Самарканд, 1990.
4. Amiet P. "Il y a 5000 ans les Elamites inventaient l'écriture"// Archeologia. № 12. 1966. Pp. 20-22 .
5. Amiet P. L'Age des echanges inter-iraniens. Paris. 1986. P. 76.
6. Аванесова Н. А. Предметное письмо доисторической Бактрии//Transoxiana. М. 2002. С. 16-23.
7. Broman Vivian L. "Jarmo Figurines and Other Clay Objects"//Prehistoric Archaeology along the Zagros Flanks. 105. 1983. Pp. 369-423.
8. Boqiyev A., Shaydullayev A., Yo'ldosheva Z. Oks Sivilizatsiyasi. "Yangi nashr". Т. 2015. 109-b.
9. Фридрих И. История письма. Перевод с немецкого. Из-во "Наука". Москва. 1979. С. 30.
10. И. Гелб. История письменности. От рисуночного письма к полноценному алфавиту. Москва. 2018. С.-9.
11. Schmandt-Besserat D. 1992, Before writing, volume one: from counting to cuneiform. University of Texas Press, Austin. 1992.
12. Oppenheim A. L. "On an Operational Device in MesopotamianBureaucracy"// Journal of Near Eastern Studies. № 18. 1959. Pp. 121 - 128 .
13. Shaydullayev Sh. B. Sopolli madaniyatining piktografik belgi-yozuvlari// O'zbekistonda ishtimoiy fikr. № 2. Т. 2003. 35-38-bb;
14. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Yo xarfi. 10-b.
15. Corpus of Indus Seals and Inscriptions. Collections in India. Helsinki.1987.
16. Sh . Shaydullayev, A. Shaydullayev. Turonning eng qadimgi yozuv tizimi.- Toshkent: Fan, 2024.-56-bet.
17. Choriyev Z., Shaydullayev Sh., Annayev T. O'zbekiston hududida yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiyoti. "Yangi asr avlodi". Т. 2007. 72 b;
18. Shaydullayev Sh. B. O'g'irdagi bitiklar: yoxud yozuvning paydo bo'lishiga doir muhim yangilik// Tafakkur. № 4. Т. 2004. 56-57 bb.
19. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Yo xarfi. 10-b.
20. Corpus of Indus Seals and Inscriptions. Collections in India. Helsinki.1987.

55 Sh . Shaydullayev, A. Shaydullayev. Turonning eng qadimgi yozuv tizimi.-Toshkent: Fan, 2024.-56-bet.